

**IJODIY FAOLIYATNING NAZARIY ASOSLARI VA SHART-
SHAROITLARI**

Samiyev Baxtiyor Norbobo o'g'li

*O'zDSMI "Madaniyat va san'at muassasalarini
tashkil etish hamda boshqarish" ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ijodiy faoliyat va ijodiy ishlab chiqarish tizimining nazariy asoslari va shart-sharoitlari haqida ma'lumotlar keltirilgan va fikrlar berilib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Festival, ijodiy faoliyat, ijodiy ishlab chiqarish, ijodkor, madaniyat va san'at sohasidagi mahsulotlar, innovatsiya, ma'naviyat, milliy an'ana.*

Abstract: *This article provides information and comments on the theoretical foundations and conditions of creative activity and the creative production system.*

Key words: *Festival, creative activity, creative production, creator, culture and art products, innovation, spirituality, national tradition.*

Аннотация: *В данной статье представлены сведения и комментарии по теоретическим основам и условиям творческой деятельности и системе творческого производства.*

Ключевые слова: *Фестиваль, творческая деятельность, творческое производство, творец, произведения культуры и искусства, новаторство, духовность, национальная традиция.*


“Yurtimizdagi bugungi ijodiy muhitni kuzatsak, u qandaydir turg'unlikka tushib bir joyda deysinib turganday, ko'pchilik ijodkorlarimiz o'z tashvish va muammolari bilan o'ralashib qolayotganday taassurot qoldiradi. Holbuki, madaniyat va san'at arboblari hamisha jamiyatning oldingi safida bo'lishi ular

o‘z asarlari faol grajdanlik pozitsiyasi bilan odamlarni ezgu maqsad va marralar sari boshlashi ilhomlantirishi kerak emasmi?!¹

“Azal-azaldan xalq ijod ahliga katta ishonch bilan qarashi sizlarga ma’lum”²deb – ta’kidladi Prezidentimiz uchrashuvda. Ko‘rinib turibdiki, davlat rahbari ijod ahliga yuksak hurmat ko‘rsatib, ularni milliy madaniyatimizni yanada taraqqiy ettirish, o‘z ijodi va iste’dodini xalq manfaatlariga xizmat qildirish safarbar etishga da’vat qilmoqda.

Jumladan, Surxondaryo viloyati Boysun tumanidagi “Boysun” folklor-etnografik xalq jamoasi Polsha, Fransiya, Buyuk Britaniya kabi 20 ga yaqin xorijiy davlatlarda, Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi “Besh qarsak” folklor-etnografik xalq jamoasi Koreya, Germaniya, Ozarbayjon kabi mamlakatlarda, Bulung‘ur tumanidagi “Chavqi” folklor-etnografik xalq ansambli, Sirdaryo viloyati Guliston tumanidagi “Sayxun yigitlari” folklor-etnografik xalq ansambli, Toshkent viloyati Oqqo‘rg‘on tumanidagi “To‘rg‘ay” folklor-etnografik xalq jamoasi, Qashqadaryo viloyati Qarshi tumanidagi “Momogul” folklor-etnografik xalq ansambllari bir nechta davlatlarga ijodiy safarda bo‘lib, o‘zbek folklor san’atini dunyo bo‘ylab targ‘ib qilib kelishmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.02.2022-yildagi 59-son “Boysun Bahori” xalqaro folklor festivalini tashkil etish va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorida Festivalning asosiy vazifalari belgilangan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:³

 o‘zbek xalqining o‘ziga xos folklor san’atini, shu jumladan, og‘zaki she’riy ijodiyot, xalq dostonlari, hunarmandchilik, milliy liboslar va xalq o‘yinlari, qadimiy urf-odatlarini saqlab qolish hamda ularni keng targ‘ib etish;

¹ 2017-yil 3-avgustdagi Prezident SH.M.Mirziyoyevning Ijodkor ziyolilar bilan uchrashuvidagi nutqidan.

² A.Haydarov. Ijodiy faoliyatni rejalashtirish va boshqarish.”Kamalak” nashryoti.Toshkent-2019. 9-bet.

³ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.02.2022-yildagi 59-son “Boysun Bahori” xalqaro folklor festivalini tashkil etish va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori

✚ xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda milliy madaniyatlar uygʻunligi va turfa xilligini saqlash va rivojlantirish, nomoddiy madaniy merosning eng yaxshi namunalarini muhofaza qilish va rivojlantirish;

✚ milliy anʼanalarni asrab-avaylash, yoshlarda folklor sanʼatiga boʻlgan qiziqishni oshirish;

✚ oʻzbek xalqining madaniyatini, xususan, betakror folklor sanʼatini, shu jumladan, Festival doirasida hunarmandchilik koʻrgazmalari, tasviriy va amaliy sanʼat asarlari, qadriyatlar va anʼanalarni keng targʻib etish;

✚ turli millat vakillarini maʼnaviy muloqotga jalb etish, milliy anʼanalar asosida xalqaro madaniy hamkorlikni mustahkamlash, madaniy turizmni rivojlantirish.



Davlatimiz rahbari tomonidan folklor sanʼatiga juda katta eʼtibor qaratilmoqda. Yurtimizda oʻtkazilayotgan “Xalqaro baxshichilik sanʼati”, “Buyuk ipak yoʻli”, “Nurli navolar”, “Boysun bahori” kabi xalqaro festivallar buning yorqin isbotidir. I “Xalqaro baxshichilik sanʼati” festivalida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Folklor himoyaga va muhofazaga muhtojdir. Mana shunday noyob va buyuk sanʼat bugungi kunda shunchaki madaniy yodgorlik namunasiga aylanib, koʻp joylarda unutilib ketayotgani, himoya va muhofazaga muhtoj boʻlib turgani — bu ham davrimizning achchiq haqiqatidir. Bu haqiqat ushbu goʻzal va betakror sanʼatning chinakam fidoyilari

sifatida siz, azizlarni hammadan ko‘ra ko‘proq tashvishga solayotganiga ishonaman” — deganlar.⁴

Uchrashuvda Madaniyat vazirligi, O‘zbekkino milliy agentligi va ijodiy ziyolilar bilan ishlaydigan barcha uyushmalar faoliyati tanqidiy tahlil etilib, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, muammolarni hal etish uchun ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi barcha tashkilot rahbarlariga asosiy vazifalar belgilab berildi. Har bir tashkilotlarga mablag‘ ajratish va moddiy qo‘llab-quvvatlash borasida homiy tashkilotlar biriktirildi.

“Millionlab odamlarning e’tiborida bo‘lgan madaniyat adabiyot va san’at degan muqaddas dargohga qadam qo‘ygan har bir ijodkor avvalo o‘z xalqining qalbiga quloq solib uning dardiga darmon bo‘lishga intiladi. Sizlarni barchangizni men o‘z ijodiy faoliyati bilan mana shunday hayotiy e’tiqodga umrbod amal qilib kelayotgan fidoyi insonlar deb bilaman. Va men ishonaman nasib etsa hava qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san’atimiz bo‘ladi”⁵ – degan yuksak ishonch bildirdi Prezidentimiz mamlakatimizning ijodkor ziyolilariga.

Mamlakatimiz madaniy hayotida katta tarixiy voqelikka aylangan mazkur uchrashuv ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi idoralarning barcha rahbarlariga adabiyot, madaniyat va san’at sohasining yetuk namoyandalari yozuvchilar, shoirlar, aktyorlar, bastakorlar, rejissyorlar, rassomlar qolaversa, O‘zbekistonimizning ijod ahliga katta ma’suliyat va faxr-iftixor baxsh etdi.

Muhtaram Prezidentimiz bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda O‘zbekiston siyosiy jamiyatida ijodiy faoliyat uning mazmuni va mohiyati, ijodiy faoliyatini rejalashtirishning nazariy asoslari va tarixiy shart-sharoitlarini tanqidiy-tahliliy xulosalar asosida o‘ziga xos takomillashtirilgan shaklini, usulini yoki bir so‘z bilan aytganda yangi modelini yaratdi. Bu o‘z navbatida yurtimizda ijodiy faoliyatning kelajagini, uzoq yillik istiqboli va taraqqiyotini belgilab berdi.

⁴ Xalqaro baxshichilik san’ati festivalidagi nutqidan, Termiz shahri, 05.04.2019 yil

⁵ “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 2017-yil, 4-avgust

Ijodiy faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish va boshqarishni to'g'ri yo'lga qo'yish hamda amaliyotda ijroni ta'minlashga erishish uchun mas'ul bo'lgan xodimdan, mutaxassis yoki boshqaruvchi rahbardan talab etiladigan o'ziga xos xususiyatlar bor. Bu xususiyatlar mavjud bo'lgandagina ijodiy faoliyatda samaradorlikka, ijobiy natijalarga, qolaversa, muvofaqiyatga erishish mumkin. Tilimizda layoqat, qobiliyat, iste'dod, iqtidor, salohiyat kabi inson tafakkur darajalarini belgilovchi tushunchalar mavjud.



Shaxsning muayyan faoliyati yuzasidan layoqati va uning ishni muvofaqiyatli bajarishidagi o'ziga xos imkoniyatlarini ifodalovchi individual ruhiy xususiyatlarga *qobiliyat* deyiladi. Har bir kishida muayyan soha bo'yicha biror xususiyat boshqalarga qaraganda nisbatan kuchliroq rivojlangan bo'lishi mumkin. Ana shu uning qobiliyatidir. Qobiliyatdagi xususiyatlar tug'ma bo'ladi, shu qobiliyat egasi bilim olishi, malaka xosil qilishi orqali uni takomillashtira borishi yoki aksincha tumballik qilib, bora-bora so'ndirib yuborishi ham mumkin.

Insonning o'z xatti-harakatlariga nisbatan subyektiv munosabatiga *iqtidor* deyiladi. Iqtidorli insonlar ishda mardlik, chidamlilik, o'zini-o'zi boshqara olish, tashabbuskorlik kabi hislat va fazilatlarga ega bo'lishadi. O'z xatti-harakatlariga hamisha tanqidiy ko'z bilan qaraydilar, doimo olg'a intiladilar, hech qachon erishgan yutiqlari bilan cheklanib qolmaydilar.

Har tomonlama rivojlangan, nihoyatda kuchli va takrorlanmas qobiliyatga *iste'dod* deyiladi. Qobiliyatni tinimsiz mehnat tufayli tarbiyalash, takomillashtirish mumkin. Iste'dodni esa tarbiya bilan vujudga keltirib bo'lmaydi. Qobiliyatli rassom bir necha kunda ishlagan asarni iste'dodli rassom qisqa vaqt ichida yaratishi mumkin. Xalqimizda bir oqqan daryo yana oqadi, degan naql bor.

Iste'dod tug'ma, irsiy ne'mat hissoblanadi. Iste'dod egalari kamyob bo'lishadi, alohida-alohida olganda tanho, takrorlanmas deyish mumkin. Demak, iste'dod egasi noyob hodisa ekan, ularni avaylash va qadrlash zarur. Ular millatning yuzi va ma'naviy boyligidir.

Moddiy narsalar odamga jismoniy oziq va qudrat bag'ishlaydi. Faqat moddiy jihatdan ta'minlanish bilan kifoyalanish – ongsiz va ruhsiz jonzodlarga xos. Ma'naviyatga intilish esa ruh va onga ega bo'lgan odamga xos fazilatdir.

Ma'naviyat – insonning ruhiy va aqliy olamining majmuidir. Ma'naviyat – jamiyatning, millatning yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati va idrokini mujassamlantiruvchi tushuncha. Ma'naviyat inson va jamiyat ma'naviyatining negizi, inson va jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri. U muayyan iqtisodiy-ijtimoiy hayot tizimining shakllanishi, o'zgarishi yoki inqirozga yuz tutishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviyat keng tushuncha bo'lib, ma'rifat, madaniyat tushunchalarini ham o'ziga qamrab oladi. Har bir jamiyatning ma'naviyat darajasi uning iste'dod egalarini, umuman esa, qobiliyatli va uquvli shaxslarni qadrlashi, ularga alohida g'amxo'rlik ko'rsatilishi, kamol topishi uchun yetarli shart-sharoitni ta'minlab berishi bilan belgilanadi. Rivojlangan, ma'naviyati yuksak jamiyatda iste'dod egalari millatning yuzi, g'urur va kelajagi deb qaraladi. Hozir o'zbek jamiyati ana shu yo'ldan bormoqda.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan iste'dod egalarini qo'llab-quvvatlash, g'amxo'rlik ko'rsatish, ularning ijodiy salohiyatlarini xalqimizning ma'naviyatini yuksaltirishga yo'naltirish, ularning o'z iste'dodlarini namoyish etish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, shu bilan birgalikda milliy madaniyatimizni yanada taraqqiy ettirishga juda katta e'tibor qaratilmoqda. So'nggi uch yilda madaniyat va san'at sohasini isloh qilishga doir

30 dan ortiq farmon va qarorlarning imzolanishi madaniy-ma'rifiy yuksalishning huquqiy asosidir.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida ijod so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan:

IJOD – insonning yangi moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish faoliyati. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, butun bilimi, tajribasi, iste'dodi namoyon bo'ladi. Ijod dastlab inson tasavvurida tug'iladi. Uni jamiyat e'tirof etsagina haqiqiy, to'liq ijod bo'ladi. Ijod madaniyatni boyitadi va rivojlantiradi. Uni shartli ravishda ikkiga: ilmiy va badiiy ijodga bo'lish mumkin.⁶

ISHLAB CHIQRISH – jamiyatning yashashi va taraqqiy etishi uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklar (turli iqtisodiy mahsulotlar)ni yaratish jarayoni bo'lib, u inson hayotining tabiiy sharoiti va boshqa faoliyat turlarining moddiy asosidan iborat. Ishlab chiqarishning rivojlanishi, avvalo, ishlab chiqarish qurollarining o'zgarishi va mukammallashishidan boshlanadi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi jamiyat a'zolarining farovonligini muntazam oshira borish va har tomonlama rivojlantirishga imkoniyatlar yaratadi.

IJODIY ISHLAB CHIQRISH – bu inson bilimi, qobiliyati, iste'dodi, tasavvuri hamda tajribasiga tayangan holda yaratilgan, jamiyatning yashashi va taraqqiy etishi uchun zarur bo'lgan boyliklarni yaratish jarayonidir. U turli xil ko'rinishda bo'lishi mumkin. Masalan, jamiyat tomonidan tan olingan yangi bir g'oya, ssenariy, asar, spektakl, kino yoki teleko'rsatuv, radio eshittirish, qo'shiq, turli xil shoular va hokazo.⁷

Ijodiy ishlab chiqarish – madaniyat va madaniyatshunoslik sotsiologiyasida keng tarqalgan tushunchalardandir. Ushbu tushuncha ham zamonaviy jamiyatlarda madaniy boyliklar mavjudligi xususiyatini hamda madaniy ijod xususiyatlarini aks ettiradi.

⁶ U.X Qoraboyev. "Badiiy ommaviy tadbirlar". T., O'qituvchi, 1986.

⁷ A.Haydarov. Ijodiy faoliyatni rejalashtirish va boshqarish. "Kamalak" nashryoti. Toshkent-2019. 9-bet.

Hozirgi zamon jamiyatlarida gʻoyalar, siymolar, moddiy-madaniy artefaktlar kabi madaniyat namunalarini saqlash, targʻib etish va ishlab chiqarish boʻyicha ixtisoslashgan madaniyat muassasalari tarmogʻi shakllanib bormoqda. Bular – muzeylar, kutubxonalar, teatrlar, televideniye, badiiy studiyalar, badiiy-ijodiy jamoalar birlashmalari, koʻrgazma zallari, kinostudiyalar, ommaviy axborot vositalari va hokazo.

“Ijodiy ishlab chiqarish” atamasining madaniy boyliklarni yaratishga nisbatan qoʻllanilishi ijod tushunchasini qayta idrok etishni bildiradi. Ijodiy ishlab chiqarish moddiy ishlab chiqarish bilan uzviy bogʻliqdir. Yaʼni moddiy ishlab chiqarish mahsuli ijodiy ishlab chiqarishga xizmat qilishi mumkin. Misol uchun biz biror bir qoʻshiq yaratishda moddiy ishlab chiqarishning mahsuli boʻlgan vositalarga murojat qilamiz (cholgʻu asboblari, ovoz kuchaytirgich, ovoz yozuvchi uskuna va h.k.). “Madaniyat mahsuloti” (gʻoya, qoʻshiq, asar, kitob, ssenariy, kompyuter oʻyini, surat va hokazo) maʼlum bir bosqichlardan oʻtgach tovarga, isteʼmol obyektiga aylanadi. “Madaniyat mahsuloti” ishlab chiqarilishi, aynan moddiy neʼmatlar ishlab chiqarilishi kabi bozorga qaratilgan. Ijodiy faoliyat iqtisodiy munosabatlarning unsuriga aylanadi va ushbu munosabatlarning mantigʻini qabul qiladi. Yanada tushunarli boʻlishi uchun misollar keltiramiz: ushbu jarayonni teatr misolida olib qaraymiz. Dastlab yozuvchida gʻoya paydo boʻladi va u shu gʻoya asosida drama yaratadi. Ushbu dramaga asosan spektakl uchun ssenariy yoziladi. Bu ssenariy asosida esa rejissyor aktyorlarni tanlab rol boʻlib beradi va uni sahnalashtiradi. Har bir aktyor oʻz qobiliyatidan kelib chiqib rol ijro etadi. Spektakl tayyor boʻlgach esa chipta sotib teatrlarda tomoshaga qoʻyiladi. Ayni mana shu bosqichda ijodiy asar mahsulotga aylanadi.⁸

⁸ U.Gʻ. Zuunnunova, T.R.Fayziyev. Art marketing. Oʻquv qoʻllanma. Toshkent, “Kamalak” 2019 y., 140-142. b.